

JAG'-JAG' O'SIMLIGI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Haydarov Eldorbek Raximjon o'g'li,

Sayfiddinova Sarvinoz Saydullo qizi,

Muxtorjonova Xatichabonu Murodillo qizi

University of Business and Science

E-mail: khaydarov.eldorbek@gmail.com

Anotatsiya: *Tabiat inson salomatligi uchun bebaho ne'mat bo'lib, minglab yillardan beri tabobatda o'simliklar keng qo'llanib kelmoqda. Ana shunday shifobaxsh o'simliklardan biri – Jag'-Jag' o'simligidir. Ushbu o'simlik xalq tabobatida keng qo'llanilib, hozirgi zamonaviy fitoterapiya yo'nalishlarida ham o'z o'rnini topmoqda*

Jag'-Jag' (lotincha: *Achyranthes aspera*) Amarantlar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simligi bo'lib, issiq iqlimli hududlarda keng tarqalgan. U tropik va subtropik mintaqalarda, xususan, Osiyo, Afrika, Hindiston, Nepal va



1.rasm Jag'-jag' o'simligi

Markaziy Osiyo hududlarida o'sadi. O'zbekiston hududida Jag'-Jag' yovvoyi holda uchrab turadi, ba'zida bog'-rog'larga yaqin joylarda o'sadi. Bo'yi 30–100 sm

gacha yetadi. Poyasi tik, tuksiz, barglari cho‘zinchoq, qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, sarg‘ish-yashil rangda, boshoqsimon to‘pgullarda joylashgan[2].

Jag‘-Jag‘ qadimdan turli kasalliklarni davolashda ishlatilgan. Uning shifobaxsh xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Yallig‘lanishga qarshi ta‘sir: Jag‘-Jag‘ning yallig‘lanishni kamaytiradigan flavonoidlar va vitaminlar mavjud. Shuning uchun u og‘riq, shish va qizarish kabi yallig‘lanish holatlarini davolashga yordam beradi. Qon ketishini to‘xtatish: Jag‘– Jag‘ning biriktiruvchi xususiyati tufayli yaralarni davolashda ishlatiladi. Bundan tashqari, Hayz ko‘rganda ko‘p miqdorda qon ketishni davolashda ham foydalanish mumkin. Ich ketishni davolashda: Mikroblarga qarshi xususiyatlari tufayli diyareyani davolashda ishlatiladi[4]

- Antiparazitar xususiyatlar
- Yaralarni bitkazadi

Jag‘-Jag‘ o‘simligi kuchli moslashuvchanlikka ega bo‘lib, turli tuproqlarda o‘sishga qodir. Uning vegetatsiya davri yozning boshidan kuz oxirigacha davom etadi. Urug‘ orqali ko‘payadi. O‘simlikning har bir qismi – ildizi, poyasi, bargi va urug‘i biologik jihatdan faol moddalarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa ildiz qismi faolroq hisoblanadi. O‘simlik ekologik jihatdan ham muhim – yerning degradatsiyaga uchragan qismlarini tiklashda ham rol o‘ynaydi.

Kimyoviy xususiyatlari: Jag‘-Jag‘ o‘simligi bir qator biologik faol moddalar bilan boy bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar:

Antioksidant ta‘sir : Jag‘-Jag‘ tarkibida antioksidant yuqoriligi tufayli erkin radikallar keltirib chiqaradigan hujayra shikastlanishini kamaytirishga yordam beradi. Saponinlar, Alkaloidlar, Flavonoidlar, Taninlar, Efirobodlar, shuningdek, uning tarkibida temir, kaltsiy, fosfor, kaliy kabi mikroelementlar mavjud.

Xulosa: Jag‘-Jag‘ o‘simligi nafaqat xalq tabobatida, balki ilmiy tibbiyotda ham e‘tiborga loyiq bo‘lgan muhim fitoterapevtik vosita hisoblanadi. Uning shifobaxsh, biologik va kimyoviy xususiyatlari turli davo yo‘nalishlarida keng qo‘llash imkonini beradi. Kelajakda Jag‘-Jag‘ asosida zamonaviy dorivor preparatlar ishlab chiqilishi mumkin. Shu sababli bu o‘simlikni o‘rganish va tibbiyotda qo‘llash istiqbollari katta

ahamiyat kasb etadi. Jag'-Jag' juda ko'p turli xil usullarda ishlatish mumkin va uning afzalliklarini hisobga olgan holda, dorivor yoki kosmetik maqsatlarda ishlatiladigan ko'plab mahsulotlarga kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Solihov M.M., Karimov Yu.S.** – *Dorivor o'simliklar ensiklopediyasi*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
2. **Bisset N.G.** – *Herbal Drugs and Phytopharmaceuticals*. Medpharm GmbH Scientific Publishers, 2001.
3. **Akram M.** – *Minireview on Achillea millefolium Linn: A review of its traditional uses, phytochemistry, and pharmacological activities*. – Journal of Ethnopharmacology, 2020.
4. **Zohidov M.M.** – *O'simliklar kimyosi*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2009.